

## AQLI ZAIF BOLALAR TA`LIMI VA TARBIYASINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Egamberdiyeva Shahnoza Akbar qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchisi.

Tel:+998915467570

**Annotatsiya:** *Aqli zaif bolalar ta`limi va tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini tashkil qilishda bolaga ijtimoiy tajribani berish usullarini to`g`ri tanlash muhim ahamiyatga egadir. Bunday usullar-og`zaki tasvirlash yoki so`z ko`rsatmasi, ko`rsatish (taqlid) namuna, ishorali ko`rsatma, bolani kata odam bilan birgalikdagi harakatlari asosida bolaga tasir qilish xolatlaridir.*

**Kalit so`zlar:** *Noadekvatlik, nutq, fikrlash, motiv, pedagogika, psixologiya, emotsiya, aqli zaiflik, iroda, sezgi, moyillik.*

**Annotation:** *It is important to correctly choose the methods of giving the child social experience in organizing the pedagogical and psychological features of the education and upbringing of mentally retarded children. Such methods are verbal description or verbal instruction, showing (imitation) an example, gestural instruction, influencing the child based on joint actions with the adult.*

**Keywords:** *Inadequacy, speech, thinking, motive, pedagogy, psychology, emotion, mental retardation, will, intuition, inclination.*

**Аннотация:** *При организации педагогических и психологических особенностей обучения и воспитания умственно отсталых детей важно правильно выбрать методы передачи ребенку социального опыта. К таким методам относятся словесное описание или словесное указание, показ (подражание) примеру, жестовое указание, воздействие на ребенка на основе совместных действий со взрослым.*

**Ключевые слова:** *Неадекватность, речь, мышление, мотив, педагогика, психология, эмоция, умственная отсталость, воля, интуиция, склонности.*

Aqli zaif bolalar ta`limi va tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari borasida xorijiy davlatlar olimlaridan L.S.Vigotskiy, V.V.Lebedinskiy, V.I.Lubovskiy, M.S.revzner (aqli zaif bolalar psixologiyasi), E.G.Eydemiller, I.V.Dobryakov, I.M.Nikolskaya kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Yurtimizda esa, X.S.Akramova, M.F.Xakimova (aqli zaif bolalar mehnat tarbiyasi), N.S.Musaeva, D.A.Nurkeldieva, V.S.Raxmanova, M.r.Xamidova (aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanishi), L.SH.Nurmuhammedova, R.SH.Shomaxmudova (aqli zaif bolalarni oilada tarbiyalash va inklyuziv ta`lim), kabi qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta`kidlab o'tish mumkin.

Mazkur yo`nalish bo'yicha xorijiy olim va tadqiqotchilardan B.Baker va S.Landen (aqli zaif bolalarning ota-onalari bilan hamkorlik), R.Lemrr (aqli zaif [136], O.Sresk, B.Srosk (aqli zaif bolalar ta`limi va tarbiyasi), nazariy tadqiqotlari va bevosita aqli zaif bolalarda ijtimoiy tajriba, jumladan ijtimoiy munosabat bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda K.Bauman, M.Feldman, U. Preuss-Lausitz (aqli zaif bolalarning oila va

maktabdagi ijtimoiy munosabatlari), E.Srratt (aqli zaif bolalar oilasidagi psixologik muammolar) kabi olim va tadqiqotshilarning nazariy qarashlaridan metodologik manbalar sifatida foydalanildi.

Aqli zaif bolalar ta`limi va tarbiyasining murakkabligi boshqa bir qator psixofiziologik nuqsonlar qatorida ulardagi diqqat taqsimlanishining og'irligi, iroda sustligi, tez charshach va chalg'ish darajasining yuqoriligi bilan ham bog'liq. Iroda sifatlari jihatdan olganda mazkur toifadagi bolalar ma'lum hatti-harakatlarni bajarishda imkon qadar iroda kuchi talab qilinmaydigan usullarni ma`qul ko'radilar va ko'proq taqlidga moyil bo'ladilar. Aqli zaif bolalarda sog'lom tengdoshlar bilan solishtirganda, bolalararo munosabatlar shakllanishi murakkab kechadi. Bu bolalar odatda yetarlicha kirishimli emas, ular uchun reaksiyalarning noadekvatligi, atrofdagilar bilan munosabatlarning xarakterini chuqr anglab yetmaslik ularga xos [70, 102].

Shu bilan birga "Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliy shakllari yaxshi rivojlanmaganligi, fikrlashning yuzakiligi, nutqning sekin rivojlanishi va sifat jihatidan o'ziga xosligi, hatti-harakatni so'z orqali nazorat qilishni izdan chiqishi hissiy-irodaviy sohaning to'laqonli emasligi holatlari kuzatiladi" [42, 432-b.].

Tadqiqotchi N.S.Musaeva tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar bu toifadagi bolalarda "kundalik hayotda uchrab turadigan vaziyatlarni to'g'ri baholay olish, mantiqiy fikrlash, voqealar ketma-ketligini bir-biri bilan bog'lay olish qobiliyatları juda pastligini, "muloqot ko'nikmalarini mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari sharoitlarda shakllantirish orqali ularning tenglik, erkinlik asosida bola mustaqilligini, hayotga ijtimoiy moslashuvini, atrofdagilar bilan munosabatga kirishish ko'nikmalarini rivojlantrish mumkin"ligini ko'rsatgan [74, 12-16-b.].

Aqli zaif bolalardagi psixofiziologik nuqsonlar (sezgi, anglash, iroda, hissiyot, nutq, fikrlash, motorika va b.) bilan bog'liq holda psixoseksual rivojlanishda buzilishlar ro'y beradi va bu dastlabki jinsiy mansublik va faollikni anglash jarayonlaridayoq yaqqol sezila boshlaydi. Lekin, mazkur toifadagi bolalar voyaga etgash, intim munosabatlarga boshqalardan kam ehtiyoj sezadi degani emas. Ularda jinsiy ehtiyojlar ong osti darajasida shakllanishi (birinchi signallar tizimi refleksi) va o'z xohish va istaklarini boshqara olmasligi kabi xususiyatlar nafaqat ma'lum bola darajasidagi, balki jamiyat darajasidagi ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin (masalan, jinsiy mazmundagi huquqbazarlik hamda jinoyatlar) [40, 69-b.].

pedagogik-psixologik tadqiqotlarda yoshlarni psixologiyasini o'rganishda ijtimoiy munosabatda bo'lish maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi (D.N.Sokolova tasnifi bo'yicha) [101]:

- bolani oilaviy munosabatlarning turli holat va vaziyatlarida o'zining irodaviy xususiyatlarini erkin namoyon qila oladigan bola sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy reabilitatsiya jarayonining texnologiyasi va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda doimiy ravishda takomillashtirib borish;

- bolaning yoshiga xos psixologik xususiyatlaridan kelib shiqib, oilaviy munosabatlar uchun tayyor bo'lgan yaxlit bola sifatida rivojlantirish strukturasini yaratish, bunda unga o'zini-o'zi takomillashtiruvshi subekt sifatida qarash;

Shuni alohida ta`kidlash joizki, imkoniyati cheklangan bolalarni psixologiyasini o'rganishda ijtimoiy munosabatda normal rivojlanishga ega bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan ishlar yo'nalishlari, texnologiyalari va metodlarini soddalashtirish, qulaylashtirish bilan birgalikda ular uchun mavjud maxsus texnologiyalar hamda metodlarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga ham zarurat tug'iladi [41, 23-b].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullaeva R. Yoshlarni psixologiyasini o'rganishda ijtimoiy munosabatga tayyorlashda mutaxassislar mas`ulligi. "O'zbekistonda zamonaviy oila rivojlanishining dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: 2019. - 183 b.
2. Akramova F.A. Yoshlarni psixologiyasini o'rganishda ijtimoiy munosabatga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim // 2015, №10. 45-52 b.
3. Arslanova M.M. Aqli zaif bolalarni psixologiyasini o'rganishda ijtimoiy munosabatga tayyorlashda kino san`ati imkoniyatlaridan foydalanish. "Bola va zamon" jurnali. 2020/2. T., 2020. 70-72 b.
4. Arslanova M.M. Imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy tajribani shakllantirishning ayrim tarbiyaviy-korreksion masalalari. "pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2015/1. T., 2015. 34-39 b.
5. Smirnova A.M. Korreksionno-vosritatelnaya rabota ushitelya vsromogatelnoy shkoli. - M.: 'rosveshenie, 1982.-104 s.
6. Firsova E.Y. Sotsialno-redagogisheskoe sorrovojdenie semey umstvenno otstalix lits. Diss. ...kand. 'ed. nauk. - M., 1994. - 250 s.